

JAHONGIROV Kamoliddin

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi kafedrası stajor o'qituvchisi,
e-mail: kamoliddin6564@gmail.com*

O'ZBEKISTONDA TA'LIM TURIZMINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ

OPPORTUNITIES TO DEVELOP EDUCATION TOURISM IN UZBEKISTAN

Annotatsiya: Maqolada mamlakatda ta'lim turizmiga ko'rsatilayotgan e'tibor haqida so'z yuritiladi. O'zbekistonda ushbu tarmoq bo'yicha amalga oshirilgan ishlar tahlil qilingan hamda masofaviy ta'lim, almashlab o'qish dasturlari bo'yicha mamlakatimiz oliygohlarida olib borilayotgan ishlar o'rganilgan. Yurtimiz oliygohlariga xorijiy talabalarni jalb qilish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, ta'lim turizmining imkoniyatlari va unga ta'sir e'tuvchi omillar bayon etilgan. Xulosada, yurtimizda ta'lim turizmini rivojlantirish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim turizmi, turizm bozori, "Double degree" (almashlab o'qish), masofaviy ta'lim.

Аннотация: В статье говорится о внимании, которое уделяется образовательному туризму в стране. Проанализирована работа, проводимая в Узбекистане по данной отрасли, а также изучена работа, проводимая в вузах страны по программам дистанционного образования, очной формы обучения. Проанализированы возможности привлечения иностранных студентов в вузы нашей страны. Также описываются возможности образовательного туризма и факторы, влияющие на него. В заключении даны предложения по развитию познавательного туризма в нашей стране.

Ключевые слова: образовательный туризм, рынок туризма, «Двойной диплом», дистанционное образование.

Abstract: The article talks about the attention paid to educational tourism in the country. The work carried out in this field in Uzbekistan was analyzed and the work carried out in the universities of our country on distance education and exchange study programs was studied.

The possibilities of attracting foreign students to the universities of our country have been analyzed. Also, the possibilities of educational tourism and the factors affecting it are described. In conclusion, proposals for the development of educational tourism in our country are given.

Key words: educational tourism, tourism market, «Double degree», distance education.

KIRISH

So'nggi yillarda turizm bozori tuzilmasida turizmning yangi mustaqil yo'nalishi xalqaro ta'lim turizmi paydo bo'ldi hamda ancha taraqqiy etdi. Ta'lim turizmi butun dunyo iqtisodiyotiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadigan jahon iqtisodiyotining yangi sohasi bo'lib, ba'zi rivojlangan mamlakatlarda ta'lim turizmi yaxshi daromad olish va mahalliy aholini ish bilan ta'minlash imkoniyatini beradi hamda fuqarolarning iqtisodiy rivojlanishi va farovonligining yuqori darajasini ta'minlaydi. Misol uchun AQSh oliygohlariga ta'lim olish maqsadida tashrif buyurgan chet ellik talabalarining umumiy soni 2019-yilda 1095299 nafarni tashkil etgan, bu AQSh talabalar umumiy sonining 5,5 foizini tashkil qilgan bo'lib, jami dunyoning 62 ta mamlakatidan chet ellik talabalar kelib tahsil olishgan [1]. Shuning uchun ham bugungi kunda ta'lim turizmning rivojlanish jarayonlari va qonuniyatlari, shuningdek, jahon turizm bozorida mamlakatning raqobatbardoshligini o'rganish juda muhim hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Zamonaviy adabiyotlarda ta'lim turizmi turlicha talqin etiladi. Xususan, rus iqtisodchilari I.V.Zorin va V.A.Kvartalnovlar tomonidan ta'lim turizmiga ta'lim maqsadida sayyohlik, ekskursiyalar, qiziqishni qondirish va boshqa kognitiv qiziqishlarni amalga oshirish uchun boshqa davlatga tashrif buyurish, deb ta'rif berganlar [2].

Yana bir rus iqtisodchisi E.A.Lunin esa ta'lim turizmiga 24 soatdan 6 oygacha bo'lgan davrda daromad olish bilan bog'liq faoliyat bilan shug'ullanmasdan balki, ta'lim olish, malaka oshirish uchun (umumiy, maxsus, qo'shimcha) kurslar, stajirovkalar shaklida sayohat qilish, deb ta'rif bergan [3].

Adabiyotlarda o'zbekistonlik olimlarni ham ta'lim turizmiga bergan ta'riflarini uchratishimiz mumkin.

Jumladan, I.S.Tuxliyev ta'lim turizmiga – bu o'qish, malaka oshirish maqsadidagi sayohat turi bo'lib turizmga nisbatan yangi tushuncha hisoblanadi. Hozirda, ta'lim turizmida ko'proq til o'rganish uchun qilingan safarlar ommaviylashmoqda [4].

M.R.Boltabayev esa ta'lim turizmi (Ilmiy turizm) o'qish, ta'lim olish maqsadida, malaka oshirish maqsadida safar qilish bo'lib, turizmning nisbatan yangi turlari safiga kiradi [5] deb ta'rif berishgan.

Hozirda O'zbekiston Respublikasida ham ta'limni rivojlantirish orqali mamlakatda xorijiy talabalar sonini ko'paytirish hamda turizm sohasini taraqqiy toptirish borasida jadal ishlar olib borilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni bunga yorqin misoldir [6].

Shuningdek, mamlakatdagi oliygohlarda turizm yo'nalishlarining ochilishi, jahon talablariga mos keladigan sharoitlarga ega oliygochlarni barpo etilayotganligi, ta'lim sifatining oshirilayotganligi va oliygohlarga xalqaro maqomining berilishi boshlandi, xalqaro maqomdagi oliygohlarda chet ellik talabalar uchun alohida sharoitlarning mujassamligi, shuningdek, O'zbekiston oliygohlarida o'qish xarajatlarining nisbatan arzonligi, "TOP rating university 1000 talikka" kirishga harakatning boshlangani ham yurtimizda ta'lim turizmini rivojlantirish imkoniyatini beradi.

O'zbekiston Respublikasida hozirda jami 186 ta oliy ta'lim muassasalari mavjud bo'lib, o'z fuqarosi bo'lgan talabalardan tashqari xorijlik tahsil oluvchilarga ham ta'lim berib kelmoqda. Oliy ta'lim dargohlarining 34 tasi Universitetlar, 48 tasi Institutlar, 3 tasi Akademiyalar, 27 tasi Filiallar, 1 tasi Konservatoriya, 31 tasi chet el oliy ta'lim muassasalarini filiallari, 42 tasi Nodavlat oliy ta'lim muassasalari hisoblanadi [7].

Ushbu oliy dargohlarda jami 34569 nafar professor-o'qituvchilar ta'lim berib kelmoqdalar, shuningdek, 625 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishlari hamda 634 ta magistratura mutaxassisliklari mavjud bo'lib, hozirda 900000 nafar o'z fuqarolarimiz bo'lgan talaba yoshlar tahsil olishmoqda [7]. Respublika oliygohlarida jami nechchi nafaqar chet ellik talabalar tahsil olishlari haqida aniq statistika mavjud emas. Lekin ayrim statistik ma'lumotlarga

ko'ra 2018/2019-o'quv yilida jami 24000 nafar xorijiy talabalar O'zbekiston Respublikasidagi oliygohlarda tahsil olganliklari haqida ma'lumotlar berilgan [9].

Xalqaro dasturlar markazining ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi 10 yil ichida doimiy yashash joyidan tashqarida oliy ma'lumot oladigan talabalar soni (ko'chma talabalar) deyarli 70 foizga oshgan. Hozirda, birgina ta'limni eksport qilish natijasida aksariyat rivojlangan mamlakatlarning milliy iqtisodiyotiga katta foyda tushmoqda.

Birgina qo'shni Qozog'iston oliygohlarida 2018-o'quv yilida 14 mingga yaqin chet ellik talabalar tahsil olishgan. Ulardan 3 ming 683 nafari O'zbekistondan, 1 ming 320 nafari Turkmanistondan, 1 ming 26 nafari Qirg'izistondan, 1 ming 290 nafari Xitoydan, 3 ming 290 nafari Hindiston hissasiga to'g'ri kelgan [9]. Hozirda mamlakat oliygohlarida taxminan 50 mingga yaqin chet ellik talabalar tahsil olishadi. Talabalar kontingentidan ham ko'rinib turibdiki Qozog'iston ta'lim turizmini rivojlantirish va chet ellik talabalarni jalb qilishga katta e'tibor qaratgan.

Hozirgi kunda yurimizda ham ta'lim sohasini rivojlantirish va uni eksport qilish borasida ulkan ishlar olib borilmoqda. Shuningdek, ta'lim turizmini rivojlantirish maqsadida chet ellik talabalarni mamlakatimiz oliygohlarida ta'lim olish uchun jalb qilish yo'lida bir qancha ishlar tashkil qilinmoqda. Bular orasida eng muhimlaridan biri bu yurtimiz oliygohlarini Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education, Academic Ranking of World Universities kabi nufuzli agentliklar reytingida birinchi 1 000 o'rinlardan joy olishlari uchun qilinayotgan ishlardir.

Dunyo "TOP-1000" taligidan o'rin olgan OTMLar soni bo'yicha AQSh 151 ta, Buyuk Britaniya 84 ta, Germaniya 45 ta va Yaponiya 41 ta OTM bilan yetakchilik qilib kelmoqda. Shuningdek, MDH mamlakatlari orasidan Rossiyadan 16 ta va Qozog'istondan 10 ta OTMLari dunyoning kuchli "TOP-1000" taligidan o'rin olgan. Bu reytingga kirish davlatlar oliy ta'lim muassasalariga eng avvalo diplomlari hech bir imtihonsiz boshqa mamlakatlarda nostrifikatsiya qilish imkoniyatiga ega ekanligi bilan xarakterlanadi. Ya'ni bimalol o'tadi.

Shu boisdan, ham O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish

konsepsiyasida respublikamizdagi kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1 000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kiritish nazarda tutilgan. Shu maqsadda O'zMU, TIQXMMI, TDTU, TATU, SamDU, TDAU, UrDU, TTA, Turin politexnika universiteti, QQDU kabi oliy ta'lim muassasalari tanlab olinib, ularni xalqaro reytingga kiritish rejalashtirilgan.

Bulardan tashqari, 2019-yilning 5-yanvarida "keng qamrovli" hujjat, 2019-2025-yillarda O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi ham qabul qilindi. Mazkur konsepsiyada viza rejimini yanada liberallashtirish ham ko'zda tutilgan bo'lib, xususan, "Student visa" O'zbekistondagi ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan xorijlik talabalar uchun beriladigan bir yillik viza rejimlari ham ko'rib chiqildi.

Yurtimiz oliygohlariga xorijiy talabalarni yanada ko'p jalb qilish, ularning ta'lim olishga bo'lgan qiziqishini oshirishda oliygohlarining infratuzilmasi ham muhim omil egallaydi. Hozirda, ta'lim turizmi bozorida jahon standartlariga to'laonli javob bera oladigan, ya'ni ham ilmiy salohiyat jihatdan ham oliy ta'lim dargohining infratuzilmasini har tomonlama talabalar bilim olishi uchun qulay barcha imkoniyatlarning mujassamligi bilan ham yuqori sifatni va so'nggi innovatsiyani talab etmoqda. Shu boisdan, O'zbekiston prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Unga muvofiq kompleks rivojlantirish dasturini amalga oshirish uchun 1,7 trillion so'm mablag' davlat byudjetidan ajratildi [11].

Shuningdek, 2021-yil O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan umumiy xarajatlar uchun ajratilgan 165,879 milliard so'mning 34,590 milliardini aynan ta'lim sohasini rivojlantirish uchun qaratilganligi, bu esa qariyb 21 foizni tashkil etayotganligi ham mamlakatimizda bu sohani rivojlantirishga bo'lgan e'tiborni ko'rsatadi [12].

Mamlakatimizning har bir oliy ta'lim muassasasi AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Niderlandiya, Rossiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy va shu kabi boshqa davlatlarning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan hamkorlik

aloqalarini yo'lga qo'ygan. Bu esa ta'lim turizmi sohasida o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Shu asosda har yili 350 nafardan ortiq xorijlik yuqori malakali pedagog va olimlarni mamlakat oliy o'quv yurtlariga o'quv jarayoniga jalb etish ko'zda tutilmoqda [13].

2019-yil butun dunyoda keng tarqalgan COVID-19 pandemiyasi barcha sohalar rivojiga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatdi. Xususan, turizm sohasi ham bundan chetda qolmadi. UNWTO ma'lumotlariga ko'ra 2020-yilda butun dunyo sayyohlarining soni 381 million kishini tashkil qilgan, bu esa 2019-yilga nisbatan – 74 foizga kamayganini ko'rsatadi [14].

Lekin boshqa ko'plab sohalarga nisbatan COVID-19 pandemiyasi sharoitida ham ta'lim turizmini rivojlantirishda birmuncha afzalliklar bo'ldi. Jumladan, taraqqiy etgan davlatlarning ko'plab oliygohlarida onlayn, ya'ni masofaviy ta'lim olish tizimining yo'lga qo'yilganligi bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Shuningdek, ta'lim sohasida masofaviy o'qitishning ijobiy tomonlari juda ko'p. Bular quyidagilar:

- talabalarni o'z salohiyat darajasi bo'yicha o'rganish imkoniyati (videoma'ruzalarni qayta ko'rgan holda darslarni yaxshi o'zlashtirish);

- har qanday joyda o'qish imkoniyati (talabalar dunyodagi istalgan joydan turib xohlasa o'z uyidan yoki ishlaydigan talabar ishxonasidan bimalol o'qishi mumkin bo'ladi, bu ayniqsa boshqa davlatlarning oliygohlarida tahsil olishni istagan yoshlarga katta qulaylik yaratadi);

- asosiy faoliyatni to'xtatmasdan ta'lim olish (bunda ta'lim oluvchi o'qish uchun ish joyidan bo'shash yoki ta'lim olishiga hojat qolmaydi, shuningdek, o'rganish narsasini tezda amaliyotda ya'ni ish faoliyatida qo'llash imkoniyati mavjud bo'ladi);

- masofaviy ta'limning arzonroqligi va to'lov shartnoma shartlarini amalga oshirishdagi qo'layliklar (talaba sayohat, turar joy uchun pul to'lamaydi va chet el universitetlari misolida viza va xalqaro pasport uchun pul sarflashning ham hojati bo'lmaydi va to'lov-konrakt pulini onlayn pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiradi).

Statistik ma'lumotlarga ko'ra butun dunyoda masofadan turib ta'lim berish jarayonidan tushadigan daromadning ulushi 2011-yil 120 milliard AQSh dollaridan oshgan bo'lsa, 2020-yilga

kelib bu ko'rsatkich 215 milliard AQSh dollariga yetgan. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, 2025-yilga kelib bu ko'rsatkich 2,3 trillion dollarga yetishi kutilmoqda [15].

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, dunyo aholisining masofadan turib ta'lim olishga bo'lgan talabi yil sayin oshmoqda, undan davlat byudjetiga tushadigan daromad ham sezilarli darajada oshib bormoqda.

So'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lim salohiyatini oshirish, oliy o'quv yurtlaridagi shart-sharoitlarni yanada yaxshilash, xususan dunyo standartlariga to'la javob bera oladigan zamonaviy innovatsion texnologiyalar bilan to'laqonli ta'minlash chora tadbirlari ko'rilmogda. Bu davlat miqyosida ko'rib chiqilmogda va mamlakatimiz rahbari tomonidan ham e'tirof qilinmogda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli hamda "2017/2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" 2020-yil 2-martdagi PF-5953-sonli farmonlari bularga yaqqol misoldir.

Hozirda O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari jahonning turli ta'lim dasturlarida faol ishtirok etib kelmoqda. Jumladan, Yevropa Ittifoqining Tempus va Erasmus Mundus nomli ta'lim dasturlarida faol ishtirokini alohida ta'kidlash joiz.

Shuningdek, mamlakatimiz oliygohlari AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Yaponiya, Koreya Respublikasi, XXR, Malayziya, Hindiston, Rossiya Federatsiyasi kabi davlatlar bilan to'g'ridan-to'g'ri muassasalararo shartnomalar asosida hamkorlik olib borishmogda.

Ushbu shartnomalar parofessor o'qituvchilar va talabalar almashinuvi, ularning turli konferensiya va simpoziumlarda ishtirok etishi, qo'shma ilmiy tadqiqotlar olib borish, ilmiy maqolalar chop ettirish va shu kabi boshqa vazifalarni ko'rib chiqadi.

Jumladan, 2019-yil mart oyida Buxoro davlat tibbiyot instituti Rossiya Federatsiyasi yetakchi tibbiyot universitetlari va ilmiy markazlari bilan shartnomalar imzolandi. Shartnomaga ko'ra, ikki davlat oliygohlari o'rtasida "Double degree"

dasturlari, akademik almashinuv va amaliyot dasturlarini tashkil etish maqsad qilib belgilangan [16].

Biroq hozirgi kunda ta'lim turizmidagi mamlakatimiz oliygohlarida xorijiy talabalarning kontingenti ancha pats darajada, talab ham kam, almashlab o'qish, xususan, "ikki diplom" dasturiga kelsak ta'limni eksport qilishdan ko'ra uni import qilish darajasi ancha yuqori hisoblanadi. Bunga mamlakatimizda ta'lim turizmi bilan bog'liq bir qancha muammolar mavjud va ular o'z yechimini topishi zarurligi sababdir. Bular quyidagilar:

Birinchidan, oliy ta'lim muassasalarida ilmiy salohiyat darajasining pastligi, ta'lim darajasining bugungi taraqqiy etgan davlatlar bilan taqqoslaganda birmuncha orqada oqsayotganligi;

Ikkinchidan, oliy dargohlarning ya'ni o'quv binolari, jihozlarining, xususan kompyuter va shu kabi texnika vositalari, laboratoriya xonalarining dunyo standartlariga javob bera oladigan darajada emasligi hamda talabalar turar joyining yetishmasligi, borlari ham aksariyati ta'mirtalab ekanligi;

Uchinchidan, til bilan bog'liq muammolarning yuzaga kelishi;

To'rtinchidan, iqtisodiy omillar bo'lib, bunda mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatining taraqqiy etgan davlatlardan past darajada ekanligi.

Xorijiy talaba yoshlarni mamlakatimiz oliygohlarida tahsil olish maqsadida tashrif buyurishlarida yuqorida keltirilgan omillar jiddiy to'siq bo'lib turibdi. Birgina talabalar turar joyi bilan bog'liq muammolar hatto ichki ehtiyojni ya'ni o'z fuqarolari bo'lgan talabarni ham qamray olmasligi bilan bog'liq kamchiliklarning borligi ta'lim turizmi rivojida jiddiy to'siq bo'lib turibdi. MDH davlatlaridan Rossiya Federatsiyasini ko'radigan bo'lsak talabalar xususan, chet ellik talabalar uchun talabalar turar joyi, uning infratuzilmasi juda ajoyib tashkil etiladi. Jumladan, talabalar turar joyi oddiy joylashish o'rniga ko'ra ham oliy ta'lim muassasasiga, ko'ngilochar joylar: bog'lar, san'at markazlari, sport majmualari, teatr va kino maskanlari, suv havzalariga har tomonlama yaqin yoki transport vositalarida borish juda qulay va arzon narxlarda yetib olish imkonini inobatga olib quriladi. Bu oddiy narsadek ko'rinishi mumkindir, lekin xorijiy yoshlarni bu omil o'ziga jalb etmasdan, qiziqirtmasdan qolmaydi. Biz ham

bu tajribani inobatga olib amaliyotga tadbqiq etsak yaxshi samara berish ehtimoli yuqori bo'ladi.

O'zbekiston oliygohlari qadimiyligi jihatidan ham Markaziy Osiyodagi qo'shni Respublikalarni ortda qoldiradi, xususan, hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti tashkil topgan 1918-yilda qo'shni davlatlarning birortasida oliy ta'lim muassasalari mavjud bo'lmagan. Hattoki Qozoq milliy Pedagogika universiteti ham 1928-yilda tashkil etilgan [17].

Yuqoridagilardan ham ko'rinib turibdiki o'zbek olimlari oldindan ham qo'shnilarimizdan ancha ilmi va salohiyatli bo'lgan. Tarixga ham nazar solsak tibbiyot, matematika, astronomiya va islom olami taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan bobokalonlarimiz salmoqli topiladi. Shularni inobatga olib ham bu sohalarni taraqqiy ettirish va ularning bevosita merosxo'rlari sifatida ushbu sohalarda ta'lim yo'nalishlarini shakllantirish hamda qo'shni Respublikalar va dindosh davlatlar yoshlarini jalb qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xususan, Ilohiyot ilmini o'rganish uchun ko'pchilik islom mamlakatlaridan talabalar Turkiya, Misr kabi davlatlarga borishadi. Hattoki, yurtimiz yoshlari orasida ham bu kontingent darajasi yuqori.

XULOSA

Shularni inobatga olib xulosa sifatida quyidagilarni aytishimiz mumkin:

– Vazirlar Mahkamasining “Xorijiy fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish va o'qitish tartibini takomillashtirish to'g'risida” 2008-yil 4-avgustda qabul qilingan 169-sonli qarorini qayta ko'rib chiqish hamda xorijiy talabalar tomonidan to'lov-kontrakt masalalarini yengillatish choralarini ko'rish;

– xorijiy talabalarga qulayliklar yaratish va ularni jalb qilish maqsadida grandlar va stipendiyalar tashkil qilish, misol uchun: “O'zbekiston xalqaro stipendiyasi”, yoki ilohiyot bo'yicha ta'lim olish uchun kelgan xorijiy talabalarga “Imom Al-Buxoriy xalqaro stipendiyasi” kabi stipendiyalarni tashkil etish;

– qo'shni Respublikalar bilan shartnoma qilib har yili “O'zbekiston ta'lim kunlari” nomli

festivallar tashkil etish hamda bu festivalda O'zbekistonning eng nufuzli oliygohlarini reklama qilish;

– talabalar turar joylarini xususiy sektorlarga berish orqali ularning sonini ko'paytish;

– jahon standartlariga to'la javob bera oladigan zamonaviy qulayliklarga ega hamda bepul kutubxonalarni qurish yoki borlarini qayta ta'mirlash;

– “Study in Uzbekistan” deb nomlangan qisqa videoroliklar tayyorlash hamda xorijiy mamlakatlar bilan shartnomalar asosida o'sha davlatlarning televideniylari orqali qo'yib borish;

– “Travel to Uzbekistan and study” deb nomlangan maxsus va chiroyli stikerlar yaratish hamda xalq amaliy san'ati, hunarmandchilik, ustaxonalar, an'anaviy milliy buyumlar, suvenirlar va turistlar tomonidan talab yuqori bo'lgan mahsulotlarga ushbu stikerlarni yopishtirish orqali ta'lim va sayohatni reklama qilish;

– O'zbekiston ta'lim tizimi haqida oson va ta'limga oid eng so'nggi barcha ma'lumotlar ingliz, rus, arab, xitoy, fransuz va nemis tillarida qo'yib boriladigan maxsus sayt tashkil etish;

– O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti kabi oliygohlarda ilohiyot sohasida tahsil beradigan ta'lim yo'nalishlari tashkil etish hamda musulmon davlatlariga reklama qilish;

– butun dunyo iqtisodiyotiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatayotgan COVID-19 pandemiyasi sharoitida vaziyatdan oqilona foydalanish maqsadida respublika oliygohlarida xorijiy talabalar uchun ham masofaviy onlayn ta'limni yanada rivojlantirish va mazkur yo'nalish bo'yicha beriladigan diplom, sertifikatning yuridik kuchga ega bo'lishini ta'minlovchi meyoriy hujjatlar bilan tasdiqlash choralarini ko'rish.

Umid qilamizki, mazkur chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida O'zbekistonga tahsil olish uchun keladigan xorijiy talabalar soni keskin ko'payadi hamda mamlakatimiz iqtisodiyotida turizmning ulushi ortishiga shuningdek, O'zbekistonning jahon turistik bozorida o'z o'rniga ega bo'lishiga ulkan hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYAOTLAR
RO'YXATI

1. College Enrollment & Student Demographic Statistics // <https://educationdata.org/international-student-enrollment-statistics>.
2. Соколова М.В. Туризм как культурно-исторический феномен, Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора культурологии, Москва, 2007 г. <https://www.dissercat.com>.
3. Лебедев А.Р. Образовательный туризм как экономическая категория, 2012 г. <https://cyberleninka.ru>.
4. Mamatqulov X.M., Tuxliyev I.S., Bektemirov A.B. "Xalqaro turizm". Toshkent, 2008. 15 b.
5. Boltabayev M.R., Tuxliyev I.S., Safarov B.Sh., S.A.Abduxamidov Turizm: nazariya va amaliyot – T.: "Barkamol fayz media", 2018, 59 b.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni PF-5847-son, 08.10.2019-yil.
7. O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining rasmiy sayti // <https://edu.uz/uz/otm/index> (Murojaat qilingan sana: 25.10.2022).
8. O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligining rasmiy sayti // <http://invest.gov.uz>.
9. 2021-yilgacha O'zbekiston oliygohlariga talabalar qabul qilish 18%ga oshiriladi // <https://sputniknews-uz.com/20170421/5246363.html>
10. O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligining rasmiy sayti // <http://invest.gov.uz>.
11. 2021-yilgacha O'zbekiston oliygohlariga talabalar qabul qilish 18%ga oshiriladi // <https://sputniknews-uz.com/20170421/5246363.html>
12. Tourism recovery accelerates to reach 65% of pre-pandemic levels // <https://www.unwto.org/taxonomy/term/347>.
13. Share of students studying online in the United States in 2020, by annual household income in U.S. dollars and education level // <https://www.statista.com/statistics/956154/share-students-studying-online-income-education-level/>.
14. Buxoro tibbiyot instituti Rossiyaning yetakchi tibbiyot universitetlari bilan shartnomalar imzoladi // Xalq so'zi, 2019. URL: <https://xs.uz/uzkr/post/bukhoro-tibbiyot-instituti-rossiyaning-etakchi-tibbiyot-universitetlari-bilan-shartnomalar-imzoladi>.
15. Oliy ta'lim muassasalarida masofaviy ta'limni o'qitish tizimlari va amaliy imkoniyatlari // <https://cyberleninka.ru/article/n/oliy-ta-lim-muassasalarida-masofaviy-ta-limni-o-qitish-tizimlari-va-amaliy-imkoniyatlari>.
16. Vazirlar Mahkamasining "Xorijiy fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish va o'qitish tartibini takomillashtirish to'g'risida" 2008-yil 4-avgustda qabul qilingan 169-sonli qarori.
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi "2017/2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" PF-5953-son Farmoni.
18. Tuxliyev N., Qurolov Q. O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi rivojlanishini miqdor va sifat baholash. – T.: "Ilm-Ziyo-Zakovat", 2018. – 128 b.
19. Tuxliyev I.S., Safarov B. Turizm asoslari. – T.: Yangi nashr, 2012.
20. Соколова М.В. История туризма. – М.: Издательский центр "Академия", 2007.